




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-noyabr)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2021- yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 4837,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 714,4 mln. AQSh dollariga yoki 17,3 %ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 1831,2 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 114,5 %) va import hajmi 3006,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 119,1 %) yetdi. Hisobot davrida 1175,1 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-noyabrga nisbatan, %da)

2021- yil yanvar-noyabr





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	1 046,0	290,0	756,0	21,6
Turkiya	881,5	712,1	169,4	18,2
Qozog'iston	859,4	147,1	712,3	17,8
Xitoy	678,1	240,8	437,3	14,0
Braziliya	177,2	0,0	177,2	3,7
Ukraina	130,7	42,7	88,0	2,7
Koreya Respublikasi	128,2	14,3	113,9	2,7
Belarus	97,6	16,7	80,9	2,0
Tojikiston	77,0	69,2	7,8	1,6
Germaniya	69,3	9,5	59,8	1,4
Afg'oniston	63,1	63,0	0,1	1,3
Qirg'iz Respublikasi	57,2	41,2	16,0	1,2
Italiya	53,9	10,1	43,8	1,1
Niderlandiya	44,7	27,3	17,4	0,9
Litva	41,9	0,7	41,2	0,9
Irlandiya	37,2	0,0	37,2	0,8
Qatar	28,8	28,8	0,0	0,6
Singapur	28,4	27,1	1,3	0,6
Eron (Islom Respublikasi)	27,5	2,8	24,7	0,6



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,8 %ni hamda o'sish sur'ati 2020-yilning shu davriga nisbatan 121,0 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida 52,2 %ni (2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,2 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,1 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2021-yil yanvar-noyabr, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston, Afg'oniston va Qirg'iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Qatar va Singapur bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston va Xitoy davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-noyabr)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2021-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bilan 1831,2 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 114,5 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,2 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (70,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,8 %), turli xil tayyor buyumlar (7,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (4,5 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (4,2 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,6 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



■ Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar

■ Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)

■ Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar

■ Sanoat tovarlari

■ Turli xil tayyor buyumlar

■ Ichimliklar va tamaki

■ Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar

■ Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar

■ Mashinalar va transport asbob-uskunalari

■ Xizmatlar



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-noyabr)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	1831,2	626,9	1204,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	198,2	101,5	96,7	10,8	16,2	8
Ichimliklar va tamaki	2,8	2,7	0,1	0,2	0,4	0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	82,4	51,2	31,2	4,5	8,2	2,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	0,5	0,4	0,1	0	0,1	0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,0	0,1	0,9	0,1	0	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	76,9	55,1	21,8	4,2	8,8	1,8
Sanoat tovarlari	1293,0	261,2	1031,8	70,6	41,6	85,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	29,7	19,7	10	1,6	3,1	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	137,9	133,4	4,5	7,5	21,3	0,4
Xizmatlar	8,8	1,6	7,2	0,5	0,3	0,6




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI
(2021- yil yanvar-noyabr)**



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	114,5	106,6	119,0
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	77,6	57,3	123,4
Ichimliklar va tamaki	158,3	177,2	41,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	117,1	159,4	81,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	248,3 m.	184,0 m.	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	38,8	53,4	37,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	181,3	169,3	2,2 m.
Sanoat tovarlari	119,5	116,4	120,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	97,3	114,7	74,9
Turli xil tayyor buyumlar	131,8	131,1	157,0
Xizmatlar	86,8	140,0	79,9



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Tojikiston, Afg'oniston va Ukraina hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1564,9 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 85,2 %ini tashkil qiladi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

2021- yil
yanvar-noyabr

STATISTIKA BOSHQARMASI



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 136,8 mln. dollar qiymatga ega 224,0 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 14,2 %ga kamaygan, naturada – 17,6 %ga kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 80,5 mln. AQSh dollariga teng 144,7 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 33,9 %ga o'sgan), shuningdek, 33,0 mln. AQSh dollari qiymatidagi 43,2 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 60,3 %ga teng).

2021- yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari

				
Meva va rezavorlar	Uzum	Qovun va tarvuzlar	Yeryong'oqlar	Sabzavotlar
43,2 ming tonna	24,9 ming tonna	8,4 ming tonna	3,0 ming tonna	144,7 ming tonna
33,0 mln. AQSH dollari	18,0 mln. AQSH dollari	2,2 mln. AQSH dollari	2,7 mln. AQSH dollari	80,5 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 113,5 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 6,2 %ini tashkil qiladi.


TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-noyabr)



Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida import hajmi 3006,2 mln. AQSh dollari (2020-yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 119,1 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (25,3 %), sanoat tovarlari (18,7 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (21,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (8,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.





Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	3006,2	1685,9	1320,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	453,9	190,5	263,4	15,1	11,3	20,0
Ichimliklar va tamaki	7,4	7,0	0,4	0,2	0,4	0,03
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	650,5	628,0	22,5	21,6	37,2	1,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	77,2	75,7	1,5	2,6	4,5	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	71,8	66	5,8	2,4	3,9	0,5
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	257,1	83,8	173,3	8,6	5,0	13,1
Sanoat tovarlari	561,4	405,3	156,1	18,7	24,0	11,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	760,2	193,9	566,3	25,3	11,5	42,9
Turli xil tayyor buyumlar	125,4	25,9	99,5	4,2	1,5	7,5
Boshqa tovarlar	11,6	5,4	6,2	0,4	0,3	0,5
Xizmatlar	29,7	4,4	25,3	1,0	0,3	1,9

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (37,2 %), sanoat tovarlari (24,0 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (42,9 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (20,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.



Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	119,4	128,8	109,4

shujumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	136,6	72,2	3,9 m.
Ichimliklar va tamaki	171,6	182,0	80,5
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilgʻidan tashqari)	176,7	189,3	61,9
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shu kabi materiallar	81,7	81,4	101,1
Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	101,1	118,9	37,4
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	134,8	156,4	126,4
Sanoat tovarlari	119,1	130,6	96,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	96,1	119,9	90,0
Turli xil tayyor buyumlar	93,4	105,8	90,6
Boshqa tovarlar	46,1	42,2	50,0
Xizmatlar	73,0	36,8	88,2





Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Koreya Respublikasi va Ukraina hamkor davlatlaridan jami import hajmi 2454,1 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 81,5 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59